

## UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA TA`LIM JARAYONINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH JIHATLARI

**Qarshiboyeva Gulnoza Abduqodirovna, katta o`qituvchi  
Salohiddinova Aziza Oybek qizi, Pedagogika va psixologiya yo`nalishi 1-  
bosqich magistri**

**Annotatsiya:** Ta`lim-tarbiya aqlli, odobli, mehnasevar, bilimli, sog`lom, ye`tiqodli, dili pok, ruhi komil, har tomonlama ma`naviy rivojlangan, vatanparvar, baynalminal, insonparvar barkamol shaxsni shakllantirishni ko`zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, milliy an'analar va mintaqalararo hususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

**Kalit so`zi:** Bola, kattalar tajribasi, sust faoliyat, o`zlashtirish, ongli harakat, tirishqoqlik, faol faoliyat, bilimni o`zlashtirish, mustaqillik hususiyatlari, dunyoqarash.

Ta`lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqqiyatli faoliyat ko`rsata oladigan jamiyat a`zolarini etishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo`naltirishda davlat xizmatini hamda o`rta ta`limning ko`p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta`lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni ko`llash, ta`limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo`l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o`rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta`limniig, mamlakat ichki siyosatiga faol ta`sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Yaponlarda, masalan, «maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli»gina bo`lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e`tiqodga aylangan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko`p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSh, Yaponiyada ta`lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug`ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa halqaro ta`lim markazlari, masalan, AQShda halqaro ta`lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda Ko`pchiligining faoliyati o`quv dasturini takomillashtirish va qayta ko`rishga qaratilgan.

Maktab dasturlarini o`zgartirish ikki asosiy yo`nalishda: ekstensiv va intensiv yo`l bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda o`quv muddati uzaytiriladi, o`quv materiallari hajmi ko`paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo`l, ko`pchilik mutaxassislarining e'tiroficha, maqbul hisoblanadi.

Tarbiya aqlli, odobli, mehnasevar, bilimli, sog'lom, ye'tiqodli, dili pok, ruhi komil, har tomonlama ma'naviy rivojlangan, vatanparvar, baynalminal, insonparvar barkamol shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, milliy an'analar va mintaqalararo hususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatları rivojlanadi, harakteri, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust holda yemas, balki faol ravishda o'zlashtiradi: bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulgayib borgan sari bu faollik tobora ko'prq mustaqillik hususiyatlariga ega bo'lib boradi: tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o'z- o'zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarini tushunishga hamda idrok yetilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradilar.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yuqori baho bergenlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabat o'zaro tushunish, ishonch, hamkorlik asosida qurilishi lozim.

Maktab butun tarbiya ishini hayot bilan hamohangi, o'quvchilarga o'tmish, tarix, san'at haqidagi ma'lumotlarni chuqur o'rgatishi, xalq pedagogikasi asosida ish yuritishi, buyuk allomalarining farzand tarbiyasi borasidagi pedagogik qarashlari, inson ruhini chuqur o'rganib, sharqona urf-odatlar, an'analar asosida yoshlarga mehnat malakasini singdirishi lozim.

Tarbiyaning maqsadini pedagoglar ham, ota-onalar ham yaxshi bilishlari lozim.

Umumta'lim mакtablarida tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida shaxsning har tomonlama kamolotga yerishuvi asos qilib olinadi. Shaxsning har tomonlama kamolotga yerishuvi, bu uning ayrim qirralari yoki hislatlarining to'laqonligi, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Tarbiyadagi sifat o'zgarishlar va yuqori samaradorlik ko'proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlarini yosh avlod ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog'liq bo'lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo'ladi.

«Barkamol shaxs tarbiyasi» degan tushuncha tasodifan paydo bo'lgan emas. Bu inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar asosida shakllana boshladi va hozirgacha jamiyat taraqqiyotiga mos holda takomillashib kelmoqda. Ular, asosan, qissalar, pandnomalar, qadiryatnomalar, yozma

yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida va boshqa shu kabi manbalarda asoslab berilib, avloddan avlodga o'tkaziladi.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq atvorning andozalarini o'zgartirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda.

Avvalombor, tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga suyanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, huquqshunoslik, psixologiya fanlari ma'lumotiga asoslanadi.

Pedagogikaning fan sifatida shakillanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish extiyojidan kelib chiqadi. Bu extiyoj borasida orttirilgan tajribalar to'plangandan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun qoidalarni ishlab chiqish zaruratinini taqozo etadi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat-ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. "Alpomish", "To'maris" kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiat, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohozalari pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masal "Kalila va dimna", Nizommulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "saodatnoma" "Ro'shnoinoma" asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir.

Shaxsning turmushdagi turli jihatlarga munosabatlari tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi. Tarbiya shaxsni ijtimoiylashtirish uning aniq hayotiy mavqeini shakllantirish jarayonidir. Tarbiya shaxsning ongliligi, faolligi, doimiyligi, vatanparvarligi, insonparvarligi va boshqa fazilatlarini shakllantiradigan jarayondir. Tarbiya o'z tabiatiga ko'ra ko'p faktorli, xarakterga ega. Buning ma'nosi shuki, bola shaxsning qaror topishi maktab, oila, jamoatchilik, ijtimoiy muhit va yaqin atrofdagi vaziyatning bevosita yoki bilvosita ta'siri ostida ruy beradi.

Tarbiya jarayonini mashhur pedagog Abdulla Avloniy "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, - yo mamot, - yo najot, - yo halokat, -yo saodat, -yo falokat masalasisidir" deb ta'riflagan.

Ta'lim orqali nazariy kamolotga erishiladi. Tarbiya esa Forobiy fikricha bu kishilar muloqotda etnik qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir deb ta'rif bergan, hamda "insoniy maqsad-oliy baxt-saodatga erishuvni o'ziga g'oya va oliy maqsad qilib olishi kerak".

Tarbiya jarayonining mohiyati tartibga kompleks yondashishni talab etadi. Tarbiyani qurilishga qiyoslash mumkin. Kompleks yondashish ob'ektiv ravishda aqliy, g'oyaviy, ahloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, ma'naviy va hakozolarning birligini, tarbiya jarayonini tashkil etishning:

individual, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borishini, usullari hamda vositalarini maqsaddan kelib chiqib olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik tizimni keltirishni va ularni amalda qo'llashni talab etadi.

Tarbiya uzoq davom etadigan va aslida uzlusiz jarayon bo'lib bu jarayon bola mакtabga kelishidan ilgariroq boshlanadi va butun umr bo'yи davom etadi.

Tarbiya ko'pgina sabablarga, o'quvchilarning individual-topologik tafovutlariga, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasiga, shaxsiy faolligiga bog'liq.

Qadimgi sharq maqollaridan birida shunday deyilgan: "Agar o'zingni bir yilga ta'minlamoqchi bo'lsang - sholi ek, o'n yilga ta'minlamoqchi bo'lsang - daraxt ek, yuz yilga ta'minlamoqchi bo'lsang - odam tarbiyala".

Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin (maqol). Bola o'qishni o'rganishdan oldin, taqlid qilishni o'rganadi degan Kamenskiy.

"O'zi yaxshi ko'radigan narsasini o'zgalarga ham ravo ko'rmaguncha kishi mo'min komil bo'la olmaydi" - degan ekan Al-Buxoriy, Al-jome'-as-Sahih asarida.

Ota-onha va farzandlar o'rtasidagi muhim va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu borada quyidagi xikmatga rioya zarur. "Bolaning 1-6 yosh davrida u hokim - ota esa tobe, 7-18 yoshida ota hokim bola esa tobe, 18 dan so'ng esa albatta do'st va hamkor bo'lish kerak" kabi tushuncha xalq pedagogikasidan bizgacha etib kelgan.

Hozirgi davrda o'quvchilarga bilim berishning dars shaklidan tashqari boshqa shakllari paydo bo'ldi. Masalan, sayohat, bahs, konferensiya, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya va hokazo

Ayni chog'da tarbiyada va ta'lif berishda mafkuraviy jihatdan betaraf qoladigan lahzalar ham borligini unutmaslik kerak. Tarbiya va ta'lifning tashkiliy ish shakllarini aniq to'ldirish mакtab ishining u yoki bu masalalarini izohlashga yondashuv har davrda turlicha xarakterga egadir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Qarshiboyeva, G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
- 2.Каршибаева, Г. А., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Факторы суицидального поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый, (49), 235-237.
- 3.Qarshiboyeva, G.ХАЁТНИ СЕВИБ ЯШАНГ!. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-48.
- 4.Qarshiboyeva, Г.ЯЗЫК И ФОРМИРОВАНИЕ ВЫСШИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 5.Qarshiboyeva, G.OILADA BOLALARNI XALQ OG 'ZAKI IJODI NA'MUNALARI ASOSIDA TARBIYALASH. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 6.Qarshiboyeva, G.ПСИХОЛОГИК МАСЛАҲАТ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 7.Qarshiboyeva, G., & Abdurasulov, R. Oquvchi sportchilarning intilish darajasi. Архив Научных Публикаций JSPI.

- 8.Каршибаева, Г. А.Особенности суициального поведения в подростковом возрасте. Молодой ученый, (7), 663-665.
- 9.Каршибаева, Г. А. Суициальное поведение-сложное социально-психологическое явление. In Психологические науки: теория и практика (pp. 37-39).
- 10.Каршибаева, Г. А.,Н.Абдукадырова, Н. Х. Психологические особенности педагогических конфликтов. In Психология: традиции и инновации (pp. 65-68).
- 11.Каршибаева, Г. А.Психопрофилактические меры по предотвращению самоубийств у подростков. Молодой ученый, (49), 233-235.
- 12.Каршибаева, Г. А.Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суициальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
- 12.Каршибаева, Г. А., Норбекова, Б. Ш., & Туракулов, Л. Т. Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2).
- 13.Каршибаева, Г. А. Самоубийство в ряду других социальных явлений. Молодой ученый, (5), 581-584.
- 14.Каршибаева, Г. А., Абдукадырова, Н. Х., & Абдукаримова, Э. И.Педагогические конфликты-неизбежные спутники школьной жизни. In Аспекты и тенденции педагогической науки (pp. 115-117).
- 15.Каршибаева, Г. А.Некоторые факторы преодоления суициальных действий среди подростков. In Психология: традиции и инновации (pp. 68-71).
- 16.Karshiboeva, G. ХАРАКТЕРИСТИКИ МОТИВАЦИОННЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ С СУИЦИДАЛЬНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 48-49.
- 17.Karshibayeva, G. Diagnostics and Preventive Measures against the Suicidal Behavior of Teenagers. YOUNG SCIENTIST USA., 117.
- 18.Каршибаева, Г. А., & Шарофиддинов, А. (2018). Роль пословиц в воспитании детей. Молодой ученый, (49), 275-277.
- 19.Каршибоева, Г. А. СОВРЕМЕННЫЙ АНАЛИЗ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ (Doctoral dissertation).
- 20.Каршибаева, Г. А.,Б. У. Расулов, Д. Р. Расурова, О. Э. Эшмуратов. Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суициального поведения подростка : непосредственный // Образование и воспитание. — 2018. — № 2 (17).
- 21.Qarshiboyeva, G. (2020). ХАРАКТЕРИСТИКИ МОТИВАЦИОННЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ С СУИЦИДАЛЬНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 22.Каршибаева, Г.А.Аспекты социально-психологического исследования суициального поведения подростков.Мир образования—образование в мире научно-методический журнал 2021 г. 1 (81) 50-56 ст

23.Каршибаева, Г.А.Эмоциональные аспекты при суициальной поведении подростка. Scientific Collection «InterConf», (40): with the Proceedings of the 2nd International Scientific and Practical Conference «Scientific Community: Interdisciplinary Research» (January 26-28, 2021). Hamburg, Germany: Busse Verlag GmbH. 304-309 с

24.Каршибаева, Г.А. Причины суицида и факторы риска. Психология интегральной индивидуальности в информационном обществе сборник статей II международной научно-практической конференции 23 апреля 2021 года. г.Саратов

25.Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Jornal// Vol 10 Issue03,March 2021 501-505 p

26.Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)

27.Qarshiboyeva, G.Суицидал ҳулқ муаммосини ўрганилишининг тарихий шарт-шароитлари. Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Jizzax (2021 yil 17 may)

28.Qarshiboyeva, G. Ўсмирларда суицидал ҳулқнинг психологик ҳолатлари. Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Jizzax (2021 yil 17 may)

29.Karshibayeva, G. Диагностика суициального поведения у подростков. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ 2021 Выпуск 22. 84-89

30.Qarshiboyeva, G.Ногиронлиги бўлган аёлларга психологик хизматнинг ижтимоий омиллари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2019 йил. POP-356/7-119

31.Qarshiboyeva, G.Ногиронлиги бўлган аёлларнинг ички руҳиятида пайдо бўладиган ижтимоий психологик муаммолар. Journal of Pedagogy and psychology in modern education Vol. 2, October - 2021

32.Karshibayeva, G. The Problems that Appear in the Internal Psychological Ser Vices in the Mental Mode of Women with Disabilities. International Journal of Discoveries and

33.Karshibayeva, G.Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021

34.Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and

35.Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021